

# TONG Yulduzi

№15 (66400)  
2003 yil  
14 aprel  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi  
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqq boshlagan.

## EZGU NIYATLARDA RUHINGIZ SARDOR

Buyuk bobokalonimiz Amir Temur ibn Tarag'ay Bahodirning nomi tarix sahifalariga zarhal harflar bilan yozilgan.

Markazlashgan kuchli davlat tuzgan, uni donolik, aql-farosat va adolat bilan boshqargan, asrlar davomida Movarounnahr va Xurosonni arablar bosqinidan, Chingizxon va uning avlodi zulmidan ozod qilgan buyuk insonning nomi shunday ehtiromga loyiq. Uning bizgacha yetib kelgan tuzuklari bilan tanishar ekanmiz, bobomiz

**EHTIROM** g'oyat tadbirkor, aqlli va dono davlatboshi bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Talon-tarojlik, bosqinchilikni qoralagan, xotin-qizlar haqida yomon gap gapirishlariga yo'l qo'ymagan. Achchiq bo'lsa ham, haqiqatni eshitishni ma'qul ko'rgan sohibqiron Amir Temur tarixchi Sharofiddin Ali Yazdiyning yozishicha, bir vaqtning o'zida dushmanlarga ofat keltiruvchi qattiqqo'l rahbar, o'z xalqiga esa mehribon ota bo'la olgan. U o'z fuqarosining ahvoli haqida qayg'urar, odam taniy va tanlay bilardi.

Ulug' maqsadlar - ulug' ishlarga boshlaydi, deydi dono xalqimiz. Bu hikmatning nechog'li to'g'ri ekanligini shahdam odimlar bilan rivojlanayotgan mustaqil yurtimiz timsolida ko'rib turibmiz. Zero, buyuk bobokalonimiz o'gitlarini, tuzuklarini, pandu nasihatlarini o'ziga dasturulamal bilgan xalq kam bo'lmaydi. Yurtboshimizning: «Amir Temur bizning faxrimiz, iftixorimiz, g'ururimiz!», deya ta'kidlashlari ham shundan.

*Ezgu niyatlarda ruhingiz sardor,  
Adolat g'olibdir, mag'lub yomonlik.  
Dastingiz shamshirga bormasin zinhor,  
Bobo, barchamizga tilang omonlik!*

Dilorom ABDULLAYEVA,

Alisher Navoiy nomli Nafis San'at litseyining 9 - «A» sinf o'quvchisi.



Men ta'lim oladigan maktab tarix faniga ixtisoslashgan. Shuning uchun ham biz tarix fanini chuqur o'rganamiz. Tarix o'qituvchilarimiz ham juda bilimdon. Shuningdek, bizga oliy o'quv yurtlaridagi domlalar ham dars o'tishadi.

Biz o'quvchilar tez-tez tarix mavzusida kechalar, tadbirlar, uchrashuvlar o'tkazib turamiz.

Bu yil sohibqiron Amir Temur bobomizning 667 yilligi keng nishonlanayapti.

Tarixdan

**MENING TEMUR BOBOM** ma'lumki, bobomiz 35 yil saltanatda hukmdorlik qilib, adolat o'rnatishga harakat qilganlar va bunga erishganlar ham.

Amir Temur bunyodkorlik ishlariga ham katta e'tibor berganlar. Ayniqsa, Samarqandning go'zal, ko'rkam bo'lishida o'z hissalarini qo'shganlar. O'sha vaqtning o'zidayoq ularning shon-shuhrati Angliya, Fransiya kabi davlatlarga tarqalgan. Bu kabi davlat rahbarlari bobomizning harbiy san'atiga tan berishgan. O'z navbatida sohibqiron bobomiz ham ushbu davlatlar bilan do'stlik aloqalarini tiklaganlar.

Biroq, mustabid tuzum davrida tariximiz buzib ko'rsatildi.

Yurtimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi qad rostladi. Muzeyda Temuriylar davriga oid bo'lgan barcha voqea-hodisalar bilan tanishib, ularning hayotini ko'rish mumkin.

Yurt uchun o'z jonini ham fido qiladigan va barchani shunga chorlaydigan bobomiz Amir Temurning nomini xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Zulxumor UMAROVA,

Toshkent shahar, Hamza tumanidagi tarix faniga ixtisoslashgan 216-maktabning 11-sinf o'quvchisi.

### «MAKTABGA ELTIB QO'YADIGAN...» NOMLI MAQOLA MUHOKAMADA

Assalomu alaykum qadri gazetamiz «Tong yulduzi!». Mana, o'ylab-o'ylab senga maktub yo'llashga qaror qildik. Zora, bizning so'zlarimizga quloq solib, yordam bersang. Biz Yunusobod tumanidagi «Obod» mahallasida yashaymiz. Mahallamiz ismi jismiga mos, juda obod, hamma joylar ko'm-ko'k, saranjom-sarishta. Faqatgina biz tomonga keladigan transport masalasi juda ham yomon. Bor-yo'g'i ikkita avtobus qatnashi sababli ularga chiqishning sira iloji yo'q. Kichkina

«marshrut taksi»lari juda ko'p. Ular ham doimo to'lib, to'xtamay o'tib ketishadi. Sinfirmizdagi ba'zi bolalar Mustaqillik maydoni yaqinida joylashgan Bolalar badiiy ijodiyot markazida ta'lim olsa, ba'zilari futbolga, tennisga, musiqa maktabiga qatnashadi. Ota-onalarimiz yo'l chiptalari olib bersa, biz ko'pincha yo taksida yoki «marshrut taksi»sida manzilimizga yetib olamiz. Buning boisi 115-, 19-avtobuslarning eshigidan kirishning iloji yo'q. Doimo tiqilinch bo'lganligi sababli to'garaklarimizga borgunimizcha charchab qolamiz. Biz tomonda katta Hayvonot bog'i, Moliya litseyi, Pediatriya institut litseyi, Yunusobod ulgurji savdo bozori va yana bir qancha katta tashkilotlarda ishlaydigan yo'lovchilar qiynalib, o'qishga, ishga kelishadi. Sendan katta iltimos, yuqorida o'tirgan amakijonlarimizdan iltimos qilib, avtobuslar sonini ko'paytirsang. «Obod mahalla» yilida yo'llarimizni ham obod qilsang. Butun umidimiz sendan. Maktubimiz natijasini kutib qolamiz!

Toshkent shahar,  
Yunusobod tumanidagi 239-maktabning  
5- «B» sinf o'quvchilari.



### IMZOSIZ MAKTUB

Assalomu alaykum, hurmatti tahririyat xodimlari! Sizlarga maktub yozishdan avval ushbu o'yladim. Chunki bu maqolam tufayli boshingizga ta'nat toshlari yog'ilishini bilaman. Shunday bo'lsa ham yozishga qaror qildim. Chunki keyingi paytlarda o'qituvchilarimizning tez-tez «kasal» bo'lib hurishlari va bu kasallikning 2-3 oylab cho'zilib ketayotgani bizni ranjityapti. Birgina misol, sentabr oyida maktabimizga yangi matematika o'qituvchisi keldi. Nihoyatda bilimli, talabchan, o'quvchilarni o'z faniga qiziqitira oladigan, kezi kelganda o'ta qattiqqo'l ekan. Bundan biz o'quvchilar, qolaversa, ota-onalarimiz ham juda quvongandik. Oradan ikki oy o'tar-o'tmas o'qituvchimizning betob bo'lib qolganlarini eshildik. Ha, endi issiq jon-da, biror haftalarda chiqib qolsalar kerak, deb umid qilgandik. Afsuski, ularning kasallari ham cho'zilib keldi.

Bir kuni oyim bilan bozorga borgandik. Ne ko'z bilan ko'rayki, biz sog'ayishini intiq kutayotgan bemor ustozimiz bozorda savdo qilayotgan ekan. Ko'zlarimga ishonmadim. Lekin bu achchiq haqiqat edi.

«Ertaga men kelolmayman, kasallik varaqasi ochtiraman. O'rnimga boshqa o'qituvchi dars o'ladi», deydi yana bir ustozimiz. Ishga yaroqsizlik varaqasini olib, boshqa shaharlarga qatnab, savdo-sotiq qilib yurgan o'qituvchilarimiz ham yo'q emas.

Nahotki, Gippokrat qasamini ichgan shifokorlarimiz sog'lom kishilarga kasallik varaqasini bemalol ochib beraversalar? O'qituvchilarimiz soxta «kasal» bo'lib qolaverishsa, sog'lom avlodni kim tarbiyalaydi?

Ma'lum sabablarga ko'ra ismimni ko'rsatmadim.

Buzoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
19 - maktab o'quvchisi

**JONLI LIBOSLAR**

G'ijduvon shahridagi 21 - maktabning 7 - «A» sinf o'quvchilari sinf rahbarlari Irina Anatolyevna boshchiligidan Andersen ertaklari olamiga g'aroyib sayohat qilishdi. Rusalina Sulstonova, Shohruza Xo'jayeva, Feruza Javharova, Behzod Samadov, Eldor Mardonovlar ertak qahramonlari bo'lishsa, ular bilan birga sayohatga o'tlangan boshqa sinf o'quvchilari qarsak chalib, xayrixoh bo'lib turishdi. Tomoshabinlar chehrasidagi mamnuniyatni ko'rib, Irina Anatolyevnaning quvonganini bir ko'rsangiz edi. Chunki mehnatlari besamar ketmadi, o'z qo'llari bilan tikkan liboslar bolajonlar ijrosida jonga kirdi-da!



*Ozoda MUHAMMEDOVA,  
Buxoro viloyati.*

**OLIMLAR AVLODIMAN**

Singlim Feruza bilan yakshanba - dam olish kunini orziqib kutamiz. Mazza qilib dam olish uchun deb o'ylayotgandirsiz? Yo'q, buvam va buvimlarni har yakshanbada borib ko'rganimiz, ularni darrov sog'inib qolganimiz uchun yakshanba tezroq kelishini xohlaymiz.

Mening bobom - Begali Joldasov 50 yildan beri o'qituvchilik qiladilar. Avvallari Yuqori Chirchiq tumanidagi maktablarda ishlaganlar. 30 yildan oshdi, hozir O'zbekiston Milliy universitetida tarix fanidan dars beradilar. Bobom katta olim, onajonim ham fan nomzodilar. Buvijonim esa Pedagogika universitetida o'qituvchilik qilganlar. Bularning hammasini bobojonimdan so'rab, bilib olganman. Ular menga: «Sen olimlarning avlodisan, maktabda faqat a'loga o'qi», deyidilar. Albatta aytganlarini qilaman, bitta ham «4» bahoim yo'q, hammasi «5» baholar. Bobom bizga juda mehribonlar. Ularni ko'rgani borsak, quvonib ketadilar. Yonlariga olib, palov damlashni o'rgatadilar. Yana aytadilarki, erkak kishi taom pishirishni, qolaversa, osh damlashni bilishi kerak. Sport bilan shug'ullanishi, Vatani tarixini, avlod-ajdodlarini bilishi shart, deyidilar. Singlim bilan doimo bobojonim o'gitlarini tinglab, ular orzu qilgandek farzand bo'lib kamolga yetishni istaymiz. Bobomiz kabi 74 yoshda ham hormay-tolmay, bardam-baquvvat yurish, davlat xizmatida sidqidildan mehnat qilish bizga ham nasib etsin.

*Dilshod YUSUPOV,  
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
27-maktabning 7-sinf o'quvchisi.*

**AMIR TEMUR POYTAHT UCHUN NEGA SAMARQANDNI TANLAGAN?**

Bizning tarix darslarimiz juda ham qiziqarli o'tadi. Sababi, o'qituvchimiz Hurmatoy opa Temirova faqatgina kitob bilan cheklanib qolmasdan, o'zi bilgan tarixiy ma'lumotlarni ham bizga o'rgatadilar.

Shuning uchun sinfimizning eng to'polonchi bolalari ham darsda jim o'tiradilar.

Bir kuni opamiz sohibqiron Amir Temur poytaxt uchun nega Samarqandni tanlagani haqida navbatdagi hikoyasini so'zlab berdilar.

Opamizning aytishiga qaraganda, bobomiz taxtga o'tirgach, o'zi qurayotgan buyuk saltanat uchun poytaxtlikka loyiq shaharlarni ko'zdan kechiradi va hammasiga bir donadan qo'y sonidan ilib chiqadi. Mulozimlariga bu tadbir sirini aytmaydi. Lekin go'shtdan har kuni xabar olishni buyuradi. Ba'zi joylardagi go'shtlar tez kunda sasib qoladi. Samarqanddagisi esa 6-7 kun turadi. Shundan so'ng Amir Temur Samarqandni poytaxt deb e'lon qiladi va o'zi ham umrining oxirigacha shahar atrofida bog'lar barpo etadi. Bu tadbiridan lol bo'lgan mulozimlariga shunday deydi:

-Havosi qancha musaffo bo'lsa, odamning ko'ngli yorishadi. Ko'ngli yorishgan odamda turgan joyiga muhabbat uyg'onadi. Bizning yurtga esa mehmonlar hali ko'p keladi.

*Mavjuda UMARQULOVA,  
Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumanidagi 21 - o'rta maktab o'quvchisi.*

**Opalaringiz olgan olqish  
LATOFATLI QIZLAR**

Andijon Davlat Universitetida «Latofatli qiz» ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Ushbu tanlovda oliygohning a'lochi, zukko, ziyrak qizlari ishtirok etishdi. Sahnada tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan qizlarimiz filologiya fakulteti talabasi Oynaxon Qodirova, tarix fakulteti talabasi Nilufar Qodirjonova, biologiya fakulteti talabasi Nargiza Abdullayeva, pedagogik ta'lim fakulteti talabasi Aziza Xabibullayeva, kimyo fakulteti talabasi Odina Azizovalar o'z mahoratlari va puxta bilim sohibi ekanliklarini namoyish qildilar. Tanlovning g'oyat qiziqarli o'tishida oliygoh xotinqizlar qo'mitasi raisasi Salimaxon Mirzayevaning mehnati tahsinga sazovordir. U talaba qizlarni nihoyatda talabchanlik bilan ushbu tadbirga tayyorladi. Tanlov shartlariga ko'ra 1- o'rinni Oynaxon Qodirova, 2- o'rinni Nilufar Qodirjonova, 3-, 4- o'rinlarni esa Nargiza Abdullayeva, Aziza Xabibullayevalar egalladilar. Kelajakda zukko qizlarimiz Respublika miqyosida ham shunday yutuqlarga erishadilar, deya umid qilamiz. Ushbu tanlovni tashkil etishda yaqindan yordam bergan oliygohimiz jamoasiga, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati a'zolariga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

*Zilola HAYDAROVA,  
Andijon Davlat Universiteti  
Filologiya fakulteti 2-kurs talabasi.*

**NAVOIYXONLIK**

«Yaxshilik tegrasida uyrila olmasang,  
Yaxshilar tegrasida uyril».

Qadr don do'stining dono so'zlar mohiyatini Husayn Boyqaro shoirdan judo bo'lganda angladi.

Alisher Navoiy bilan uning sadoqatli do'sti sulton Husayn Boyqaro o'rtasidagi do'stona munosabatlar tarixiy manbalarda, afsonalarda tildan-tilga ko'chib, dunyo xalqlariga ibrat namunasi bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

... Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tirgach, 1470 yili Alisher Navoiyni Samarqanddan Hirotga chaqirib oladi. O'sha vaqtda 28 yoshda bo'lgan Navoiy muhrdorlik vazifasiga tayinlanadi. Oradan biroz vaqt o'tib, bosh vazir bo'lgan Navoiy davlatning ichki va tashqi siyosatida muhim mavqe tutgan arboba aylanadi. Bu davrda u xalq dardi, turmush sharoiti haqida ko'p qayg'uradi, zulm va adolatsizlikka qarshi ayovsiz kurashadi. Ammo saroydagi bir to'da qora guruhlar uni ko'rolmaydilar. Adolatsizlik, gina, adovat shoirga qattiq ta'sir qiladi. Oqibatda, u xastalanib qoladi: «Shu qadar zaiflashdimki, tabiblar davolashdan o'jizdirlar».

**Bu davr ilaki o'larman, maraz chu zohir emas,  
Tabiblar bu balog'a nechora bila qilgaylar,** - deb sog'lig'idan shikoyat qiladi.

Tarixchi olim Xondamirning yozishicha, qish kirishi bilan Alisherning salomatligi yanada og'irlasha boshlaydi. Bundan tashvishga tushgan Xo'ja Abdullo podshoga odam yuborib ahvolini bayon qiladi. Husayn Boyqaro yuborgan eng yaxshi tabiblar ham bemor dardiga davo topisha olmaydi. Vaqt o'tganligi, hech bir muolaja naf bermasligini aytishadi. Ammo Boyqaro har qancha tadbir bo'lsa qo'llab, Alisherning dardiga malham topishni buyuradi. Tabiblar shoirdan qon olishadi, ammo foydasi bo'lmaydi. Uning dardi yanada og'irlashadi.

Bemor o'ziga kelmadi. 1501 yilning 16 yanvari tongi Hirot osmoni faryod bilan yorishdi. Bu judolik ne-ne jangu jadallar, fitnayu ig'volar ham qaddini bukolmagan Husayn Boyqaro qaddini bukib qo'ydi. Shoir o'limini Xondamir shunday tasvirlaydi:

«Tong otganda bu og'ir qayg'u xabari butun shaharga tarqaldi. Shahar ahlining faryodu fig'oniga sababchi bo'lgan, osmonga qadar yuksalgan bu alamli tovushlar, qayg'ular ko'k yuzli bulutlarga burkanib, yer yuziga to'fon kabi ko'z yoshlarini yog'dira boshladi. Ulug' shoir, olim, davlat va jamoat arbobini dafn etish marosimi katta xalq to'loqini ichida o'tdi. Bu marosimda katta-yu kichik, butun xalq ishtirok etib, uning xotirasi uchun kun motam tutdi».

Husayn Boyqaro do'stining vasiyatiga amal qilib, tobut yoniga keldi-da, Navoiyni bosib o'tgan hayot yo'lini yig'ilganlarga so'zlab berdi va tobutga qarab janoza o'qidi.

Ulug' do'stining tirikligida bergan maslahatlariga amal qilmagan Husayn Boyqaro naqadar baxtiqarolikka uchraganini, qolgan umri saltanati tanazzulga yuz tutganini angladi. Afsuski, endi kech edi.

*Ergash BAHODIROV,  
Samarqand viloyati, Urgut tumanidagi 57 - maktabning oliy toifali  
o'qituvchisi.*

Maktublar, maktublar, maktublar...

## Muxbir safardan qaytdi

Andijon viloyati, Bo'z tumani Xalq ta'limi boshqarmasiga qarashli 2-umumta'lim maktabi bir yil mobaynida katta o'zgarishlarni

tomidan tortib taxta poliga qadar yaxshisi bilan almashtirildi...

O'quv uslubimizga kelsak, fan


## QISHLOQ MAKTABI DEMANG

boshdan kechiryapti.

Qanday deysizmi? Gap shundaki, 2002 yilda maktab Yaponiya grantiga sazovor bo'ldi. 36,6 mln. AQSH dollarilik mablag'ga qayta ta'mirlanib, 250 ta

parta, 9 ta «Zinger» tikuv mashinasi, 12 ta kompyuter, sport anjomlari olindi. Uzoq qishloq maktabining zamonaviy tus olayotgani meni quvontirib yubordi. Tongda bilim maskaniga borgach, oliy toifali muallim, rahbar Faxriddin OO'ZIYEVni maktab bog'ida uchratdim.

-Xush ko'rdik, mehmon. Yangiliklardan boxabar bo'lay, debsizda. Keling, suhbatimizni mana shu bog'dan boshlaylik. Maktabimiz atrofi obodonlashtirilmoqda. Boqqa 1500 tup mevali va manzarali ko'chatlar, 500 tup atirgullar ekdik. Yo'laklarimiz ham kengaytirilib, sifatli asfalt yotqizildi. Bino



kabinetlarimiz zamonaviy jihozlanib, turli to'garaklar ishlab turibdi. Fanhaftaliklari, sport musobaqalari o'tkazilyapti.

Biologiya fani o'qituvchisi Mohiniso Abdurahimova va fizika o'qituvchisi Umidjon Abduvaliyev sinfxonalari namunali tarzda bezatildi. 11-sinf o'quvchisi Farida Rahmonova esa ona tili va adabiyot fani bo'yicha viloyat miqyosidagi olimpiadada ishtirok etib, 3-o'rinni oldi. Yana maktabimizga homiyilar birlashtirilgan bo'lib, a'lochi o'quvchilarga oyiga 500 so'mli stipendiyalar beriladi.

Oliy toifali muallim, 25 yillik ish faoliyatiga ega Mohiniso Abdurahimova o'zining noan'anaviy darslari bo'yicha viloyat miqyosida tanilgan. Ko'p maktablarning biologiya o'qituvchilari ana shu uslubni qo'llamoqdalar.

-Men dars mobaynida uy vazifani so'rash, yangi mavzuni o'tish, o'quvchilarni baholash kabi qolipga aylangan uslubdan voz kechib, yangi ko'rinishda dars olib borishni yo'lga qo'ydim, - deb suhbatni boshladi Mohiniso opa Abdurahimova. - Har bir soatga turli ssenariylar yozganman. Unda o'tilajak mavzu batafsil va o'yin tarzida tushuntiriladi. Beixtiyor barcha o'quvchilar ishtirok etib, baholanadi. Dars bola miyasiga «qo'rg'oshinday» quyilib, unda nabotot dunyosiga qiziqish uyg'onadi. Uyg'a borgach, albatta kitobni ochib, o'qib, mag'zini tushunib, kerak bo'lsa rasmini ham chizadi. Mana, qo'limda to'rtta darsning ish rejasi. Ular - «Sayohat darsi», «Sud darsi», «Biologik o'yin», «Bozor darsi» va shu kabilar. Yaqinda 8-sinfda «Sayohat darsi»ni o'tdim. Unda turli bekatlar uyushtirildi.



bo'yicha kamyob hayvonlar, dunyosini «Ajoyibotlar mavjud antiqa organiladi. «Sud salomatligi haqida darsi»da iste'mol chevalar, shifobaxsh quritilgan mevalar va to'xtalamiz. Har bir mahsulotni uning xususiyatlari, shifobaxshligini chaqiradi... Shu kabi o'quvchilarda, balki uyg'otishi bejiz

Darhaqiqat, Mohiniso opaning gapida jon bor. O'qituvchi o'z darsini qiziqarli o'tsa, unda o'quvchilar faol, baholari yuqori bo'ladi. Maktablar bag'ri bolalar bilan to'la bo'ladi.



Masalan, ekologiya «Qo'riqxonabekati»da noyob o'simliklar o'rganisak, bekati»da yer yuzidagi nabotot va hayvonotlar darsi»da inson va uning to'xtalamiz. «Bozor qilinadigan mevalar, osh ko'klar, sabzavotlarga keng o'quvchi turli xislatlari va foydasi va aytib, xaridor darslar nainki kattalarda ham qiziqish emas.

Muharrama PIRMATOVA.

Bolaligida hamshira bo'laman, shifokor bo'laman, deya orzu qilmagan qizaloq bo'lmasa kerak. Bu kasbning mas'uliyati, uning ortida inson taqdiri turganligini his qilganlar hayajonga tushadi. Chin ko'ngildan

ilk ilmiy- ijodiy ishingiz kelgusida tibbiyotga katta yangiliklar olib kelishiga ishonamiz. Bu albatta, birinchi qadamingiz. Sizga hamisha ijodiy barkamollik tilaymiz, - dedi tibbiyot bilim yurtining rahbari, shifokor

## ILMIY- IJODIY ANJUMAN

intilganlar, mehr qo'rganlar har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga harakat qiladilar. Yo'ldosh Oxunboboyev nomli Respublika tibbiyot bilim yurtida ana shunday opalaringiz tahsil olishadi.

Sog'liqni Saqlash kuni munosabati bilan ushbu bilim yurtida o'quvchilarning ilmiy-ijodiy anjumani bo'lib o'tdi. Unda Jizzax, Sirdaryo viloyatlari bo'lajak hamshiralari ham ishtirok etdi. Anjumanda o'quvchilar tibbiyotga oid dolzarb masalalar bo'yicha ilmiy ishlarini namoyish etishdi. Shuningdek, o'n bitta kafedra o'zining ish faoliyatini namoyish etib, farmatsiya bo'limi o'quvchilarining ishlari namunali deb topildi.

-Aziz o'quvchilar, qo'lingizdagi

va pedagog Umarova Tursunxon Yusupovna.

Anjumanning qiziqarli va jonli chiqishida bilim yurtining uslubchisi Mansurova Dilorom Xasanovnaning xizmatlari katta bo'ldi.

O'z navbatida anjumanga taklif qilingan mehmonlar ham o'quvchi va o'qituvchilarning ish faoliyatiga yuqori baho berdi. O'quvchilarga esa o'zlarining

esdalik sovg'alarini topshirdi. Ushbu anjuman barcha ishtirokchilarda katta taassurot qoldirdi va o'quvchilarni yanada ko'proq bilim olishga choraladi.

Alisher ABDULLAJONOV.




## UYIMIZGA SHIFOKOR KELDI

Yaqinda oyijonim betob bo'lib qoldilar. Uyimizga shifokorni chaqirdik. Tez orada oppoq kiyimda, chiroyli opa kirib keldi. Opa oyijonim bilan xuddi yaqin tanishlardek so'rasdi. Ularning o'ta xushmuomalaliliklari betob oyijonimni va meni quvontirib yubordi. Oyijonimni diqqat bilan kuzatgan opa ular uchun dori darmon yozi berdi. Menga esa qaysi dorini qay mahalichish kerakligini tushuntirdi.

Oyijonimning tezroq tuzalib ketishlari uchun xuddi shifokor aytgandek harakat qildim. To'rt-besh kunda ular sog'ayib, ko'rmagandek bo'lib ketdilar.

Shu yoqqa sabab, qo'li yengil shifokor argamehrim ortdi. Kelajakda ulardek shirinsoz shifokor bo'laman, deya niyat qildim. Men tufayli xasta insonlar o'z dardlariga malham topsalar, qanday yaxshi.

Maftuna ERDONOVA,  
Samarqand viloyati, Oqtosh shahridagi  
66-maktab o'quvchisi.




G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligiga

# NUJR VA HARORATLI IJOID

Sevimli adibimiz G'afur G'ulomning asarlarini mazza qilib o'qimagan o'quvchi topilmasa kerak. Ayniqsa, uning «Shum bola» asari hammamizga yod bo'lib ketgan.

Xabaringiz bor, bu yil G'afur G'ulom tavalludining 100 yilligi nishonlanadi. Ushbu sanaga bag'ishlab maktablarda tadbirlar, uchrashuvlar boshlab yuborildi. Uning uy muzeyi ham qayta ta'mirlanyapti. Ko'plab nashriyotlar tomonidan shoirning yubileyiga bag'ishlab kitoblar chop etilyapti.

Jumladan, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi shoirning bir jildlik «Saylanma»si



- F a t x u l l a  
Abdullayevning  
«G'afur G'ulom  
h a q i d a  
x o t i r a l a r»  
kitobini nashr  
etish arafasida.


« G ' a f u r  
G ' u l o m  
z a m o n d o s h l a r i  
x o t i r a s i d a » d e b  
nomlangan to'plam  
esa shu kunlarda o'z  
o'quvchilariga yetib  
bordir. G'afur G'ulom  
haqida kengroq  
ma'lumot olishni  
istagan o'quvchilarga

«G'afur G'ulom o'zbek adabiyotini mehr- muhabbat bilan o'stirgan, uni ko'p millatli adabiyot maydoniga olib chiqqan yozuvchilarimizdan biridir.

Sevimli shoirimiz G'afur G'ulomning ijodiy kamoloti sanoatimiz, yirik qishloq xo'jaligimiz, madaniyatimizning yaralishi, taraqqiy topishi, voyaga yetishi, xalqimizning moddiy va madaniy hayotidagi mislsiz zo'r o'zgarishlar bilan bog'langandir...

G'afur G'ulom ijodiyoti - zo'r gulxan, uning har qanday ko'rinishi xilma-xil yonish, ya'ni nur va harorat, demakdir. G'afur G'ulom poeziyasining zo'r kuchi, jozibasi, ko'zni qamashtirib yuboradigan go'zalligi shundadir».

Abdulla QAHHOR.



## MINNATDORLIK

**Taqdirni qo'l bilan yaratatur odam,  
G'oyibdan kelajak baxt bir afsona.**

Ushbu misralarni o'qiboq, gap kim haqida borayotganini anglagandirsiz? Juda to'g'ri, betakror asarlari o'quvchi qalbiga osongina yo'l topa oladigan sevimli shoirimiz G'afur G'ulom haqida. Bobomiz shu kunlarda oramizda yo'q bo'lsalarda, asarlari dilimizda, tilimizda.

Kuni kecha maktabimizda bobomizni xotirlab kecha o'tkazdik. Unga shoirning yoru birodarlari, oila a'zolarini taklif qildik. Ayniqsa, shoirning qizi Olmosxon opamizning xotiralarini maroq bilan tingladik. Aytishlaricha, G'afur G'ulom san'atsevar inson bo'lgan ekanlar. Yurgan yo'llarida ham qo'shiq xirgoyi qilib yurarkanlar. O'talarining qo'shig'ini eshitib, boqqa chiqib

kutib olarkanlar. Yozuvchi Pirimqul Qodirovdan shoir ijodi haqida qiziqarli ma'lumotlarni bilib oldik. Ilhom kelishini kutmay, xohlagan paytlarida she'r yozaverishlari shoir bobomizning nodir iste'dod egasi, mohir so'z ustasi bo'lganliklaridan dalolat beradi.

G'afur G'ulomning «Shum bola» asari asosida tayyorlangan sahna ko'rinishida Shum bola rolini qoyilmaqom qilib ijro etib bergan sinfdoshimiz Jo'rabek Usmonovni o'quvchilar ham, mehmonlar ham birdek olqishlashdi. Shunday maroqli kechani tashkillagan ustozlarimiz - Nigora opa va Xurshida opalardan behad minnatdor bo'ldik.

Azizxon A'ZAMOV,  
Poytaxtdagi 110 - maktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.

albatta kitob yaqindan yordam beradi.

«Shoir sifatida rostgo'yligi-yu samimiyati shu qadar ediki, ayrim she'rlarni yig'lab yozardilar, yig'lab o'qirdilar. Bir umr haqiqat deb tan olganimiz, baxt yo'li deb intilganimiz- yetmish yillik tarixning aldo'v, soxta o'zlikni yo'qotish yo'li ekanligini anglash G'afur aka uchun ham oson kechmasdi. Va manim nazarimda, alam- armon bilan ho'ngrab yig'lab ham she'rlarni jaranglatib tashlar edilar. Mustaqillik qadr- qimmatini, sharofatini butun vujudi-la o'zbekning akademik shoiri, olimi betakror satrlarga solardi, ehtimol. O'zlariga xos baland ruh, o'ktam qalb bilan yana shoh asarlar bitgan bo'lurdilar», deya xotirlagan edi O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya.

Aziz o'quvchilar, so'zimiz nihoyasida shoirning ushbu misralarini shoir qilib olishingizni istar edik:

**Aziz asrimizning aziz onlari,  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.  
Fursat g'animatdir shox satrlar-la,  
Bezamoq chog'idir umr daftarin.**

Feruz SOYIBJON qizi.

Sog' yurak- tog' yurak

## OTAM, ONAM VA MEN

Chilonzordagi sakkizta bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari o'rtasida «Otam, onam va men» nomli sog'lomlashtirish sport tadbiri

o'tkazildi. Unda barcha bolajonlar - ularning ota-onalari ham faol ishtirok etdilar.

Ayniqsa, 429- bolalar bog'chasining «Qaldirg'och» guruhi kichkintoylari hamda onalardan Venera Hamidovaning chaqqonligi davraga yanada quvnoqlik kiritdi. Ularga birinchi o'rin berildi.

Bu bolalar



Biz sog'lom va quvnoqmiz

bog'chasida sportga jiddiy e'tibor bog'ida o'tkazilgan shaxmat va beriladi. Yaqinda «Mirzo Ulug'bek» shashka tuman musobaqasida ham bog'cha tarbiyalanuvchisi, «Nilufar» guruhi a'zosi Dima G'ulomov o'tkir zehni bilan barchani lol qoldirdi va birinchi darajali diplom bilan taqdirlandi.

Bu muvaffaqiyatlarda bog'cha mudirasi Zumrad opa Sodiqova hamda tarbiyachilar Mavluda Qodirova, Olga Murzina kabilarning tinimsiz mehnati bor.

Nargiza XAITOVA,  
O'z.M.U. jurnalistika  
fakultetining  
2- bosqich talabasi.



## QANIBIZNING MANGUBERDILAR?..

Biz Chilonzordagi Nafis san'at litseyida tahsil olamiz. Har tong o'qishga otlar ekanimiz, jamoat transportida, xoh u avtobus bo'lsin, xoh metro, o'rindiqlarda faqat yigitlarni ko'ramiz. Shunisi achinarliki, ular nafaqat yoshi biroz ulug'larga, hatto qariyalarga ham joy berishmaydi.

**O'g'il bolalar o'qisin**

Keksalarga qizlarning darhol joy bo'shatishlarini ko'p bora kuzatganmiz. O'g'il bolalar esa...

Biroz uyalib, yuzlarini yashirishsa ham mayli edi-ya, bemalol o'tiraverishlari bizni tashvishga soladi.

Tunov kuni bekatga 95-avtobus kelib to'xtadi. Biz dugonam bilan keksalarni oldinga o'tkazib yuborib, ularning ortidan sekin yura boshladik. Shu payt gavdali bir yigit yugurib kelib, hammani turtib-surtib, birinchi bo'lib avtobusga chiqib oldi. Oxirgi o'rindiqlarni qo'li bilan to'sib, band qildi. Orqasidan yetib kelgan do'stlari ham shosha-pisha o'tirib olishdi. Qo'llarida og'ir yuki bilan ularning tepasida turgan onaxonlarga esa umuman ahamiyat berishmasdi. Nahotki, zamonamiz yigitlari shu darajada vijdonsiz bo'lib ketishgan bo'lsa? Qani bizning Manguberdidek, Alpomishdek haqiqiy er yigitlarimiz?!

**Nilufarxon BAHROMOVA,**  
**Malika ABDUVOHIDOVA.**

## SIQILGANIDAN CHEKAR EMISH...

Hozirgi kunda ayrim tengdoshlarimiz chekishni o'zlariga «moda» qilib olishayotgani hech kimga sir emas. Ana shunday bolalarning ayrimlari bilan suhbatlashsam, siqilgandan chekaman, deyishadi. Javoblaridan o'ylanib qolaman: siqilishlariga hech qanday sabab yo'q-ku, axir?! Ota-onasi bor, o'ziga to'q oilaning farzandi ekanligi yurish-turishlaridan shundoqqina bilinib turibdi. Menimcha, bu olihtagarchilikdan, to'qlikka sho'xlikdan boshqa narsa emas. Bugun sigaret chekishni odat qilgan bola ertaga giyohvandlik moddalariga ham qiziqmaydi, deb kim kafolat bera oladi? Ular sigaret tarkibidagi nikotin moddasining bir tomchisi otni, ikki tomchisi hatto filni ham yiqitishga qodir ekanligini bilisharmikin?

**Umida YUSUPOVA,**  
**Poytaxtimizdagi 305 - ekolitsey maktabning**  
**10 - «B» sinf o'quvchisi.**

**Siz nima deysiz?**

## OLIM BO'LMA, ODAM BO'L...

Sh. ismli sinfdoshimiz juda yaxshi o'qiydi, sinfboshining yordamchisi. Shunday bo'lsa-da, uni hech kim yaxshi ko'rmaydi. Chunki u o'zini hammadan ustun tutadi. Hatto o'qituvchilarimizni ham hurmat qilmaydi.

Tunov kuni ingliz tili ustozimiz undan uy vazifasini so'raganda, o'tgan darsda sinfdan chiqarib yuborganingiz uchun dars tayyorlamadim, deb javob berdi bamaylixtir.



Ustozimiz, to'polon qilib o'tirganing uchun chiqarib yuborgandim, desalar, Sh. yana jahlliqilib, kitob-daftarlarini yig'ishtirib, papkasiga soldi-da, eshikni tepib, chiqib ketdi.

Shu tobda xayolimdan «Olim bo'lma, odam bo'l», degan naql o'tdi.

**Munisa AVAZOVA,**  
**Toshkentdagi 85 - maktabning**  
**6 - «A» sinf o'quvchisi.**

**KINONI YAXSHI KO'RAMIZ!**  
**AMMO...**

Hozirgi kunda oynai jahon orqali chet el filmlari, seriallar namoyish etish rusmga aylanib qolgan, desam mubolag'a bo'lmaydi. Ularni hamma zo'r qiziqish bilan tomosha qilishi ham sir emas. Bu filmlarning aksariyati sevgi-muhabbat, o'ldim-kuydimlar haqida ekanligi, ularni kattalar bilan birga bolalar ham bemalol tomosha qilaverishlari meni tashvishlantiradi. Nazarimda o'zbek kinolari kamroq berilayotgandek. Ayniqsa, bolalarbop filmlar. Tanqid-kelajakning mevasi, deyishadi. Zora, fikrlarim inobatga olinib, ekranlarimizda yangi-yangi bolalarbop seriallar paydo bo'lsa.

**FeruzahMEDOVA,**  
**Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi**  
**7 - umumta'lim maktabning**  
**10 - sinf o'quvchisi.**

**Yaxshi dam**

## BOLALAR TEATRGA BORISHADIMI?

Men bu savolga hech ikkilanmay, «yo'q» deb javob bergan bo'lardim. Borsalar ham, maktablaridan majburan chipta sotilsa, borishadi. Shunda ham teatrni tomosha qilmay, bir-birlari bilan gap sotib, pista chaqib, sho'xlik qilib o'tirishadi. Natijada ularni «madaniyatsiz, tarbiyasiz»ga chiqarishadi. Bu gaplarda ham jon bordir, balki. Lekin menimcha hamma aybni bolalarga to'nkayverish to'g'ri emas. Bolalar hukmiga havola etilayotgan tomoshalar ularning talabiga javob bera oladimi, ularni qiziqtiradigan mavzular qalamga olinganmi, muammolari, qiziqish va intilishlari ham inobatga olinganmi? Yozuvchi va rejissyorlarimiz shular haqida ham jiddiyroq o'ylab ko'rishsa, yomon bo'lmasdi, nazarimda.

**Lola ABDULLAYEVA,**  
**Respublika Nafis san'at litseyining**  
**9 - «A» sinf o'quvchisi.**

## SANOBAR KIM?

Ilgarilari sinfimizda hech narsa yo'qolmasdi. Yuqori sinfga o'tganimizdan keyin ruchkalar, kitoblar, daftarlar va hatto pullar ham yo'qoladigan bo'lib qoldi. Dugonalarimning aytishlaricha, bu ishlarni Sanobar



ismli qiz qilayotganmish. Avvaliga bu gaplarga ishonmadim. Bir kuni u navbatchi edi. Xuddi supurayotgandek bo'lib, bizning chiqib ketishimizni poyladi. Yarim yo'lga yetganda ustozimiz Sanobarni chaqirganlari yodimga tushib, sinfga qaytib kirdim. Qarasam, Sanobar mening papkamni kavlayotgan ekan. Meni ko'rib, uyalib qoldi.

**Dildora EGAMBERDIYEVA,**  
**Toshkent shahar, Akmal Ikromov**  
**tumanidagi 312 - maktabning 5 - «A»**  
**sinf o'quvchisi.**

## QAROVSIZ QOLGAN IT

Bu ko'ngilsiz voqea qish kunlarining birida sodir bo'lgandi. Dugonalarim Shahlo va Zilolalar bilan maktabdan qaytayotgandik. Shu payt yonginamizda bahaybat soya paydo bo'ldi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, kattakon it biz tomonga yugurib kelyapti. Hammamiz har tarafga qocha boshladik. U esa ortimizdan quva boshladi. Katta it emasmi, bir zumda Zilolagaytibolib, oyog'ini tishlab oldi. Shahlo ikkimiz itni urib, haydashga urindik. U esa irillab, bizga ham tashlana ketdi. Egasi kelib qolmaganida, bilmadim nima bo'lardi...



Zilola oyog'ini ushlagancha, yum-yum yig'lardi. Itni shifokor ko'rigidan o'tkazishibdi, yaxshiyamki quturmagan ekan. Yo'qsa, dugonamiz og'ir kasalga duchor bo'lardi. Ko'pqavatli uylarning atroflarida kuchuklarini sayr qildirib yurgan kishilarni ko'plab uchratamiz. Shuningdek, nazoratsiz yurganlari ham yo'q emas. Shu atrofda yurgan kichkintoy bolalarni tishlab olsa, nima bo'ladi. Nahotki egalarini bu narsa tashvishga solmasa? Menimcha, bunday kishilarga nisbatan jiddiyroq chora ko'rish lozim.

**Adiba ERGASHEVA,**  
**Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi**  
**273 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.**

## MENING BOG'CHAM QANI?

Bizning «Sabzavot» mahallamizda bir paytlar bolalar bilan gavjum bog'cha faoliyat ko'rsatardi. Men va tengdoshlarim uning bag'rida ulg'ayganmiz. Uch-to'rt yildan buyon bog'chamiz ishlamay qo'ydi. Mahallamiz bolajonlari ancha olisda joylashgan bog'chaga avtobusda qatnashyapti. Ayniqsa, otionalarning vaqtlari bekatlarda avtobus kutish bilan

o'tayotgani achinarli. Men «2003 yil - Obod mahalla yili»da o'z bog'chamizning yana qayta ishga tushishini istardim. O'shanda obod mahallamiz bag'ri sho'x bolajonlarning quvnoq ovozlari bilan yanada fayzli bo'lardi.

**Gulnoza MAHSUDOVA,**  
**Yo'ldosh Oxunboboyev nomli tibbiyot kollejining**  
**1 - bosqich, 33 - guruh talabasi.**



Tongda so'lim tabiat,  
Bog'da shudring kechaman.  
Chechlarning kichkintoy,  
Kafilaridan quchaman.

Toki quyosh chiqquncha,  
O'tgan dam biram suluv.  
Meni ko'rib qochadi,  
Tog'lar ko'zidan uyqu.

So'ng chiqib kelar quyosh,  
Kechikkandan tortinib.  
Men tanbeh berolmayman,  
Suluv kunga botinib.

She'r muallifi Umida EGAMOVA -  
Toshkent tumani, O'ishloq xo'jalik kasb-  
hunar kollejining 1-bosqich talabasi.  
Kelajakda u huquqshunos bo'lmoqchi.

## ZO'R HUQUQSHUNOS BO'LAMAN



O'qigan maktabi, ustozlari haqida qiziqdik.

-Men Parkent tumani, Zarkent qishlog'idagi 14-maktabning 9-sinfini bitirganman. Ustozlarimga kelsak, harsafar o'qishga kelayotganimda ularni ishga shoshilib ketishayotganini ko'raman.

Ulardan bir umr minnatdorman. Chunki ular bizni deb yelib yugurishadi.

-Siz kelajakda huquqshunos bo'lar ekansiz. Bu kasbga avvaldan qiziqqanmisiz?

-Yo'q, men bolaligidan she'r, maqolalar yozishga qiziqardim. Ular tumanimizdagi «Parkent tongi» gazetasida bosilib turardi.

-Ota-onangiz bundan quvonishgandir?  
-Albatta. Otam qishlog'imizda oddiy dehqonlar. Oyim uy bekasi. Oilada 3 farzandimiz. Meni ismimni Umida deb qo'yilishi ota-onamning 8 yillik orzularining



ushalishi, ya'ni meni tug'ilishim bilan bog'liq.

-Keyingi

vaqtlarda qishlog'ingizni nomi juda mashhur bo'lib ketayapti?

-Ha, qishlog'imizning raisi Tojiboy ota Rizayev O'zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldilar. Buning ustiga, Zarkentning uzumlari nafaqat O'zbekistonda, balki, qo'shni Respublikalarda ham mashhur.

-Kelajakda orzularingiz?

-Men kelajakda ham shoira, ham qonun himoyachisi bo'lib, Vatanimga sidqidildan xizmat qilish niyatidaman.

-Niyatlaringiz yo'ldoshingiz bo'lsin!

Ozoda TURSUNBOYEVA  
suhbatlashdi.

Biz yaqinda A. Yassaviy jamoa xo'jaligida yashaydigan buvimlarnikiga mehmonga bordik. Men tog'amning bolalari bilan birga dalaga o'ynagani chiqib ketdim. Biydek dalada bug'doy ekilgan joy bor ekan. Biz ariq chetlaridan yalpoz, otquloqlar tera boshladik. Shunda ko'm-ko'k bug'doy ekilgan dalaning o'rtasida baland joyda do'ppayib turgan qabrga ko'zim tushdi. Qabr panjara bilan o'ralgan, ustiga katta tosh ham qo'yilgan ekan. Dalaning o'rtasida nega bittagina qabr borligi menda qiziqish uyg'otdi. Uyga kelgach, buvamni so'roqqa tuta boshladim.

- U vaqtlarda men navqiron yigit edim, dedilar buvam. -Traktor haydardim sherigim Sergey degan yigit bilan. Sen ko'rgan dala avvallari qabriston bo'lgan edi. U yer to'lgach, qabriston boshqa yerga ko'chirildi. Bir kuni rais kelib, eski qabristonni haydaysan, deb turib oldi. Men unamadim. U meni ishdan haydamoqchi bo'ldi. Axir musulmonchilikka to'g'ri kelmaydi-ku, dedim. Lekin rais o'zining gapida turib olib, Sergeyga «Sen haydaysan», dedi. Sergey raisning aytganini qildi. Oradan bir necha kun o'tdi. Men Sergeydan xavotir olganim uchun daladan to'g'ri uning oldiga bordim. Negadir traktorning ovozi eshitilmas edi. Men qadamimni tezlatdim. Dalaning

o'rtasida traktorning chirog'i yoniq holda turardi. Men uni ustma-ust chaqirdim. Traktorning ichidan bo'g'i qovozi keldi. Men Sergeyni amallab tushirib oldim. U menga «Anavi yerda bir talay odamlarni ko'rdim. Menga tashlanishdi. Zo'rg'a qochdim», dedi. Men uning ko'ziga sharpa ko'ringandir, deb o'ylab, daladan tezroq chiqib ketishni o'ylardim. Raisni ich-ichimdan so'kar, Sergeyni esa tezroq tuzalishini xudodan iltijo qilardim. O'sha kundan keyin Sergey na gapira oldi va na yura oldi. U faqat allanimalar deb g'udranardi, xolos. Oradan bir-ikki hafta o'tgach, u vafot etdi.

Yoshgina yigitning bu yerlarda hech kimi yo'q edi. Mahallamiz bilan kelishib, uni shu dalaning o'rtasiga ko'madigan bo'ldik. O'sha voqeaga ham bir necha yil bo'ldi. Lekin uning xushchaqchalligi, mehribonligi hamon qishloqdoshlarimizning tillarida doston.

Men buvam aytgan bu voqeadan juda ta'sirlanib ketdim. Ertasi kuni yana o'sha dalaga bordim. Qabrga uzoq tikilib turdim. Bahorda sap-sariq bo'lib ochiladigan gullar uning qabri ustida mayin jilvalanardi.

Jamila  
OCHILOVA,  
Yuqori Chirchiq  
tumanidagi A. Yassaviy  
nomli jamoa xo'jaligi,  
9-sinf o'quvchisi.

Bu voqea o'tgan yilning yoz oylarida bo'lgan edi. Hovlimiz keng dala tomonga qo'shilib ketgan. Yozda salqin tushgach, u yerga chiqib mazza qilib futbol o'ynardik. Bir kuni qo'shnimiz Rustam ariqning bo'yidan kichkinagina ilon bolasini topib oldi. Ilonchani tomosha qilishga biz ham bordik. U qo'lida ilon bolasini olib aylantirar, ilon bolasi esa jon-jahdi bilan to'lg'onardi. Meni ilon bolasiga rahmim kelib ketdi. Uni qo'yib yuborishini iltimos qildim. Ammo u ilon qattiq urdi. U bir-ikki qimirlab, jim bo'lib qoldi. U o'lgan edi. Rustam ilon bolasini o'sha yerga tashlab ketdi. Meni unga rahmim kelib, ko'mib qo'ydim. Oradan bir-ikki kun o'tgach, qo'shnimizning uyidan qattiq baqirgan ovoz keldi. Bu Rahima ayaning ovozi edi. Yugurib ularnikiga chiqdik. Ular Rustamni mahkam bag'irlariga bosib olgan, uning rangi esa dokadek oqarib ketgan edi. Oyim nima gapligini so'radilar. Shunda Rahima aya katta ilon kelib, Rustamni chaqib olganini aytdi. Dadasi do'xtirga ketdi. Endi nima qilaman, deb Rahima aya yig'lardilar. Oyim ularni tinchitishga intilar, ammo ular battar yig'lardilar. Buning ustiga dadam kelib qoldilar. Rustamni oyog'ini mahkam siqib o'tirgan Rahima ayani siltab tashladilar. Menga pichoq olib kelishni buyurdilar. Ular ilon chaqqan joyni pichoq bilan kesib, qonini siqib chiqara boshladilar. -Zahar tarqalib ketmasligi kerak, -derdilar ular. Keyin o'sha joyni mahkam qilib bog'lab qo'ydilar. Doktorlar kelishgach, Rustamni olib ketishdi. Buni qarangi, vaqtida ko'rsatilgan yordam Rustamni hayotini saqlab qolgandi. U tuzalib ketdi. Lekin biz bu orada bir narsaga amin bo'ldik. Ilonlar qasoskor bo'lishar ekan. Ular qayerda bo'lishmasin, o'zlariga ozor yetkazgan odamni topib, qasdini olisharkan.

Adham HAYDAROV,  
Parkent tumani, Bo'ston  
qishlog'i, 7-sinf o'quvchisi.

### BEZOVTA BO'LGAN RUHLAR

### Kunlardan bir kun...

#### BEXOSIYAT UY


Bundan bir necha yil avval bir odam chekka bir qishloqdan uy sotib olibdi. Bir kuni uy bekasi bolalari bilan qo'shni qishloqqa mehmonga ketibdi. Uyda oila xo'jayini yolg'iz qolibdi. U uxlab yotsa, bir payt yonida allaqanday sharpalar paydo bo'libdi. U o'rnidan sakrab turib, chiroqni yoqibdi. Sharpalar g'oyib bo'lishibdi. Bu hol bir necha marta takrorlanibdi. Uy egalari bir necha kun sharpalarning dastidan tinchligini yo'qotishibdi. Shunda qishloq oqsoqoli bu uyni avvalgi egalari ham mana shu sharpalarning dastidan boshqa joyga ko'chib ketganini aytdi. Uy egalari zudlik bilan bu yerni tashlab, boshqa yerdan uy sotib olishibdi. Shu-shu bu uy bexosiyat uy, sharpalar yashaydigan joy, deb hech kim yaqinlashmaydigan bo'libdi.

Bu bir rivoyat. Uyning qayerdaligini bilmaymanu har bir joyning asl egalari bo'lishiga ishonaman. Shuning uchun halol, pok bo'lib, fikrni jamlab yashash kerak.

Nurbek UNGAROV,  
Zangiota tumanidagi

12- o'rta maktabning 7- «A» sinf o'quvchisi.

### QASOSKOR ILON





# QAY BIRINI TANLAYSIZ?

**ZIGZAG** - ya'ni siniq shakl. Buni tanlagan shaxs yuqori ijodiy salohiyatga ega bo'ladi. U boshqa fikrlar asosida yangi g'oyani o'ylab topadi. Bunday inson chuqur bilimli bo'lib, qarama-qarshiliklarga bardosh bera oladi. Uni o'zgalarning fikri mutlaqo qiziqitirmaydi. Belgilangan vaqtda, qat'iy intizomda ishlashni xush ko'rmaydi. U o'z faoliyatining turli ko'rinishda bo'lishini istaydi. O'shanda yangi rejalar va uslublarni qo'llay boshlaydi. Bunday inson kelajak bilan yashab, bugungi kun bilan qiziqmaydi.

**KVADRAT** - to'g'ri to'rt burchak. Bu shaklni tanlagan shaxs o'ta mehnatkash bo'ladi. Barcha boshlagan ishlarini oxiriga yetkazadi. U hamisha sabr-bardoshli. Yangilik va axborotlarga juda qiziqadi. U intizomni, tartibni yaxshi ko'rib, o'zgalardan ham shuni talab qiladi. Noaniqliklarni xush ko'rmaydi. Beqarorlikda ikkilanib, birinchi xayoliga kelgan qarorda to'xtaydi. Ko'rinishidan sovuqqon, biroq o'z hissiyatini jilovlay oladi. Bunday insonlar ko'pyutuqlarga ega bo'ladilar.





**UCHBURCHAK** - bu shakl ulug'lik ramzidir. Uni tanlagan insonlar o'z yo'lini va maqsadini aniq biladilar. Ular intiluvchan

va tirishqoqligi bilan o'zgalardan ajralib turadi.


## ARALASH

## TEST

Ro'parangizda to'rt xil shakl tasvirlangan. Siz ko'nglingizga yaqinini tanlang. O'shanda sizga ma'qul kelgan shakl vositasida o'z fe'l-atvoringizni bilib olasiz.



Doimo o'zini haq deb biladiyu biroq baxtli bo'lish imkoniyatini qo'ldan boy beradi. Bunday kishilar raqobatga moyil, hamisha o'zi va o'zgalarni muammolarini hal qilishga harakat qiladilar. Moddiy ta'minot masalasi bunday insonlar uchun muhimdir. Nokamtarligi bois boylik orttirish va mansabga ega bo'lishga intiladi. U o'ta xudbin bo'lib, unga xalaqit beruvchilarni bemalol «supurib» ketaveradi. O'z maqsadlari yo'lida har qanday usullardan foydalanaveradi.



**DOIRA** - dumaloq shakl mukammallik belgisidir. Bu insonlar xushmuomala, sezgir, e'tiborlilik bilan boshqalardan ajralib turadilar. Osoyishtalikni istagani

bois kelishmovchiliklardan uzoqroq yuradi. Atrofidagilar fikriga tayanib, bir qarorga keladi. Ahillikni xush ko'rib, biroz beqaror bo'ladi. Diplomatik o'yinlar natijasida uning yumshoq ko'ngli, ishonchi poymol bo'lib, aldanib qoladi. Bundaylarni kuchli xislatga ega insonlar boshqarishga harakat qiladi. Aylanani tanlaganlar uchun bu muhim emas. Ular tinch hayotni birinchi o'ringa qo'yadilar. Vafo va haqiqatg'o'ylik ularning eng muhim xislatlaridir. Ular tug'ma ruhshunos bo'lganligi bois, o'z hissiyotlariga tayanib, doimo haq bo'ladilar.

*INTERNET asosida  
Andijon shahridagi 4-maktab o'qituvchisi  
Munavvara PIRMATOVA tayyorladi.*

Moviy osmon qo'ynida varraklar kim o'zarga parvoz qilmoqdalar. Ular ozodlikka chiqqan qush kabi parillab, yulqinib-yulqinib, hurlik nafasini tuyib, yuksaklikka intilmoqda. Bolakaylar ko'm-ko'kadirga chiqib oyoqyalang yugurganicha varrak uchirishmoqda. Navro'zi olamni qutlashmoqda. Ularning shodliklari cheksiz. Sevinchlari ichiga sig'maydi. Axir varrak uchirishdan ham zavqliroq o'yin bormi? Ayniqsa, yasagan varraging hammanikidan balandda uchsa! Varraklar bilan birga o'zing ham sayru samo qilganday bo'lasan. Bu shodon qiyqiriqlar, varraklar parvozi ozod yurt osmoniga yarashadi. Ular tinchlik darakchisi, bahorning elchisi.

Ota-bobolarimiz ham bolalik chog'larida tomma-tom yugurib varrak uchirishgan. Hayron bo'lmang, u paytlarda uylar bir-biri bilan tutashib ketgan, tomlar ustida esa qizg'aldoqlar kokil yoygan, maysalar oftobga bo'y ko'rsatib, sollanib turarkan. Ayrim qishloq tomlarida hozir ham ushbu manzarani ko'rish mumkin. Ularning ustiga chiqsangiz bomni, tomga emas toqqa chiqqandek zavqlanasiz.

Ha, esimiz qursin, bahorga mahliyo bo'lib varraklar haqidagi hikoyamizni sal bo'lmasa unutay debmiz. Navro'zning ilk haftasida poytaxtimizdagi «Bog'i Eram» madaniyat va



istirohat bog'ida an'anaviy varraklar bayrami bo'lib o'tdi. Respublika Xalq ta'limi Vazirligi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi bolalar tashkiloti, Respublika texnik ijodiyot markazi tomonidan tashkil etilgan «Varraklar bayrami» bu yil ham o'ziga xos esda qolarli voqealarga boy bo'ldi. «Bog'i Eram» erta tongdanoq Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan kelgan mehmonlar - yosh varrakshunoslar bilan to'lib ketdi.

Bir yonda bolakaylarning kuy-qo'shiqqa to'la sahna chiqishlari e'tiborni chorlasa, bir tarafda turfa varraklarning parvozi hayratingizni o'g'irlaydi. Ular qaysi turdagi varraklar ekan, deysizmi? Hozir aytamiz: Musobaqa shartiga ko'ra har bir viloyatdan 1 ta rahbar va 4 nafar o'quvchi o'zlari yasagan «Laylak», «Varrak», «Hajmli», «Eksperimental» varrak turlari bilan ishtirok etdilar. Samoda uchqur xayol sohiblari yaratgan «O'zbekiston bayrog'i», «Xumo qush», «Samolyot», «Kapalak» kabi o'nlab shakldagi varraklarning quvnoq raqslarini ko'rib ko'ngillar yayraydi.

Nihoyat, g'oliblarni aniqlash vaqti ham keldi. Shaxsiy birinchilik g'oliblari musobaqa talablari asosida aniqlandi. G'oliblarni tanlashda musobaqaga qatnashgan varraklarning yasalish sifati, uchirish mahorati, balandlikka o'rashi e'tiborga

olindi. Hakamlar qaroriga ko'ra quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildilar:

«Varrak» turdagi yo'nalish bo'yicha: 1-o'rin Toshkent shahridagi 46-maktabning 7-sinf o'quvchisi Shukur Nosirovga, 2-o'rin qashqadaryolik 9-sinf o'quvchisi Laziz Toilovga, 3-o'rin esa andijonlik 6-sinf o'quvchisi Mirzohid Mamajonovga nasib etdi. Shuningdek, «Laylak» yo'nalishi bo'yicha: 1-o'rinni qoraqalpog'istonlik 8-sinf o'quvchisi Adilbek Nurimbetov egallagan bo'lsa, Namangan viloyatidan kelgan 4-sinf o'quvchisi Mansur Qosimov 2-o'ringa, surxondaryolik 8-sinf o'quvchisi Aziz Madazimov esa 3-o'ringa loyiq deb topildi. «Hajmli varrak» turi bo'yicha: buxorolik 8-sinf o'quvchisi Doniyor Halimov 1-o'rin, toshkentlik 159-maktabning 7-sinf o'quvchisi

Bahodir Mansurov 2-o'rin, jizzaxlik 7-sinf o'quvchisi Ahmad Asadov 3-o'rin bilan taqdirlandilar.

«Eksperimental» turi bo'yicha birinchilikni samarqandlik 10-sinf o'quvchisi Gena Grigoryev, 2-o'rinni farg'onalik 11-sinf o'quvchisi To'rabek Umarov, 3-o'rinni andijonlik 7-sinf o'quvchisi Asomiddin Parpiyevlar qo'lga kiritdilar.

Bu bayram orqali o'quvchilar qalbida qadriyatlarimizga, milliy o'yinlarimizga, xususan, varrakning turli xillarini yasash va uchirishga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Ular varrak bahona ko'plab do'stlar orttirdilar. Orzulari varrak misoli qanot yoydi:

Samolardan samoga,  
Quyosh bobom tomonga,  
Salomimni olib uch!  
Bolalikdek baxt bilan,  
Dilda buyuk ahd bilan,  
Xumo qushdek shaxd bilan  
Uchib o'tgin, varragim!  
Quyosh bobomyuzidan,  
Quchib, o'pgin, varragim!

*Nosir BOYMIRZAYEV,  
Muhabbat HAMIDOVA.*



*Buvijonim chaqqonlar,  
topishmog'u ertakka,  
Ammo eng qiziq joydan,  
ulanadi hurrakka.*



## SHE'R. SHE'R? SHE'R!

## OBOD MAHALLAM



Tashlab qo'lini qo'lga,  
Binolar qurdi cho'lga.  
Chiroy beradi yo'lga,  
Mening obod mahallam.

Bizlarga odat hashar,  
Unda hamma qatnashar.  
Bir-biriga qarashar,  
Mening obod mahallam.

To'y-hasham bo'lgan palla,  
Yayraydi kuy va yalla.  
Hamma kuylar baralla,  
Mening obod mahallam.

Munira Nazar Yusufqizi,  
Samarqand viloyati, Pastdarg'om tumanidagi  
104 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.


## Uzning to'garak



## HOZIRJAVOB G'ANI

Muallim der: -Papkangda,  
To'rtta anor bor, G'ani.  
Uchtasini yeb olsang,  
Qancha qolar, ayt, qani?

G'ani der, hayron bo'lib:  
-Menda aslo anor yo'q.  
Kechirasiz muallim,  
Mening hozir qornim to'q.



Nilufar MO'MINOVA,  
Toshkent shahar, Yunusobod  
tumanidagi 272 - maktabning  
7 - «V» sinf o'quvchisi.

## ONAJONIM

Dunyoda eng ulug' zot -  
Bu mening onajonim.  
So'zlari bol, bag'ri keng,  
Munisam, mehribonim.

Baxtimizga doimo,  
Onam omon bo'lsinlar.  
Farzandlar ardog'ida,  
Uzoq umr ko'rsinlar.

Nargiza KARIMOVA,  
Poytaxtdagi  
193 - maktabning 6 - «V»  
sinf o'quvchisi.

TINCHLIK  
ISTAR BOLALAR

Motamsaro onalar mard o'g'lonlarin,  
Eshikka termulib, intiq kutishdi.  
Farzandi qaytmagach, ular dog'ida,  
Yuragi o'rtanib, qonlar yutishdi.

Ularning ruhini biz shod etamiz,  
Ezgulik, adolat yo'ldan ketamiz,  
Puxta bilim olib, o'qib-o'rganib,  
Dildagi maqsadga albat yetamiz.

Bugun har bir qalbdan yashar hayajon,  
Ayyomingiz muborak, aziz buvajon!  
Sizlarning mardligu jasoringiz,  
Unutmamiz biz yoshlar, hech qachon.

Siz tufayli hayotimiz tinch va osuda,  
Osmonimiz musaffo, baxtlimiz juda.  
Istagim: urushlar bo'lmasin hech vaqt,  
Tinchlik uchun kurashga qilajakmiz ahd!

Abdulaziz ABDUMUTAL o'g'li,  
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi  
12 - o'rta maktabning  
5 - sinf o'quvchisi

## ASALARI

Gul shirasini asalari,  
Qanday qilib xo'playdi?  
Jajjigina jismi bilan,  
Shuncha asal to'playdi.

Kuni bo'yi tinim bilmay,  
G'iz-g'iz uchib tolmaydi.  
«Rosa charchab-xordim», deb,  
Biroz tin ham olmaydi.

Qani endi insonlar ham,  
Ularga o'xshasalar.  
Bir-biriga faqat mehr,  
Ulashib yashasalar.

Husniddin MAMASIDIQOV,  
Andijon viloyati,  
Shahrixon shahri.

ONAJONIM,  
QACHON KELASIZ?

(Mehribonlik uyining bolasi tilidan)

Oqibat siz uchun bo'ldimi arzon,  
Yo'lingizga termulib bo'laman hayron,  
Sog'inib yashayman sizni har qachon,  
Onajonim, qachon kelasiz?



Xayolimdan ketmas yuzingiz,  
Ko'zim yumsam, turar ko'zingiz,  
Sog'inaman shirin so'zingiz,  
Mehribonim, qachon kelasiz?

Mehringizni siz darig' tutmang,  
Dilbandingiz aslo unutmang,  
Kech bo'lganda, amlar yutmang,  
Onajonim, qachon kelasiz?

Asqar ESANOV,  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi  
9 - o'rta maktabning  
9 - «B» sinf o'quvchisi.



## SUHBAT QURGIM KELAR...

Suhbat qurgim kelar tunda oy bilan,  
Go'zal va sharqiroq zilol soy bilan,  
Razolat, xiyonat, xusumat yuzin,  
Bo'yagim keladi balchiq loy bilan.

Yulduzning yuzidan tishlagim kelar,  
Go'zal tog' lolasin ushlagim kelar,  
G'am-alam, qayg'uning timsoli bo'lmish,  
Qaro tun, zulmatni «pisht»lagim kelar.

Riyoning eshigin mixlagim kelar,  
Yolg'on dunyo ko'ksin tig'lagim kelar,  
Yod etib o'tmishning mash'um kunlarin,  
To'yib-to'ygunimcha yig'lagim kelar.

Gulnoza NAJMIDDINOVA,  
Namangan viloyati, Chortoq tumanidagi  
22 - o'rta maktabning 11 - «A» sinf o'quvchisi.

## TOPISHMOQLAR


Ona emas, mehribon,  
Ota emas, qadrdon.  
Olamiz undan ta'lim,  
Uning nomi ...

(Muallim)



O'zi hiylakor, ayyor,  
Doim tayyorga tayyor.  
Ko'plarga bo'lar kulgi,  
Uning nomidir ...

Ichi to'la bilimdir,  
Qiyosi uning oftob.  
Bizlarning chin do'stimiz,  
Nomin deyilar...



Shunday uy bor bilsangiz,  
Yozda ham bo'lar sovuq.  
Yaxshi saqlanar unda,  
Go'sht, sut, baliq va tovuq.  
Nargiza QAYIPBERGANOVA,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli  
tumanidagi 57 - maktab o'quvchisi.

Ona yurtning - oltin beshiging  
**TONG  
Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va  
o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

**O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA  
AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
XALQ TA'LIMI  
VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI**

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa

MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama  
MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Nashir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib  
sahifalandi.

Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.

«Sharq» nashriyot -  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida ofset  
usulida bosildi.  
Adadi - 36380.  
Korxonaning manzili:  
«Buyuk Turon»  
ko'chasi, 41.  
Buyurtma № 1 - 318  
Gazetani  
Muharrama  
PIRMATOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda  
TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish  
tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi,  
30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75